
Tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi bo'lib o'tdi

Rishton tumani hokimligi majlislar zalida bo'lib o'tgan Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi 57-sessiyasida tuman Kengashi deputatlari, tumandagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar. Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi. 1-masala - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408-sonli Qarori talablariga asosan "Manzilli ro'yxat"ga kiritilgan loyihalarni ijrosi bo'yicha 2023 yilni may oyida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan mas'ullarni (tuman hokimi o'rinbosari N.Oripov va sektor rahbarlari) hisobotlari. 2-masala - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi "Ijtimoiy soha ob'yektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi PQ-118-sonli qarorini tumandagi ijrosi to'g'risida. 3-masala - Tuman sektor rahbarlari tomonidan taklif etilgan ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir bo'lgan oilalarni (fuqarolarni) "Temir daftar" ro'yxatiga kiritish va muammolari hal bo'lgan oilalarni (fuqarolarni) "Temir daftar" ro'yxatidan chiqarish. 4-masala - "Mahalla" xayriya jamoat fondi xuzuridagi "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidagi mablag'larni tasarruf etish to'g'risida. 6-masala - "Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining namunaviy Reglamenti hamda doimiy komissiyalari to'g'risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash. Sessiya davomida muzokara uchun so'z olganlar kun tartibidagi masalalar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tishdi. Sessiyada kun tartibidagi barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2023-06-23 18:24:48